

“Psixolog faoliyati bilan tanishuv”

“Psixolog faoliyati bilan tanishuv”

QXM fakulteti 7 – ma'ruzalar zalida 24-sentyabr kuni 1 – kurs talabalarini institut psixologi faoliyati bilan tanishtirish va targ'ibot qilish maqsadida uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvni QXM fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini K.Usmonov o'z kirish so'zi bilan ochib, so'z navbatini institut psixologiga berdi. Institut psixologi Muhayyo Kamolxonovna Muxamedova talabalarga “Institut psixologining faoliyati” mavzusida taqdimot qildi va psixolog mutaxassisining boshqa mutaxassisliklardan farqi haqida talabalarga ma'lumot berdi.



Shu bilan birga institut psixologining institutda olib boradigan faoliyati turlari bilan tanishtirib o'tdi. Uchrashuvda QXM fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini A.Isakov, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini K.Usmonov va guruh kuratorlari ham faol qatnashishdi. Yig'ilish so'ngida talabalar institut psixologiga o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi. “Institut psixologi faoliyati” to'g'risidagi varaqalar tarqatildi va ko'tarinki kayfiyatda tadbir o'z nihoyasiga yetdi.

Institut psixologi M.K. Muxamedova axboroti